



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 52-56 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



ZAMONAVIY SHAROITDA FOND BOZORI INVESTITSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MANBAI SIFATIDA

Kamilova Sevara Anvarovna

Katta o'qituvchi, PhD

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasи

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetи

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda fond bozori investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida to'g'risida fikrlar yuritilgan. Ko'plab iqtisodchi olim va mutaxassislarining ilmiy tadqiqotlaridagi fikrlar o'rganilgan. Investisiya faoliyati va ularni hozirgi sharoitda moliyalashtirish manbalari tarkibi, tahlili va ularni takomillashtirish masalalari yuzasidan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: investisiya, investisiya siyosati, investisiyalarni moliyalashtirish, investisiya muhiti, investisiya faoliyati.

ФОНДОВЫЙ РЫНОК КАК ИСТОЧНИК ФОРМИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Камилова Севара Анваровна

старший преподаватель, PhD

кафедры «Финансы и финансовые технологии»

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В данной статье рассматривается фондовый рынок как источник формирования инвестиций в современных условиях. Изучены мнения многих экономистов и экспертов в их научных исследованиях. Сформированы выводы относительно состава, анализа и совершенствования инвестиционной деятельности и источников ее финансирования в современных условиях.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная политика, финансирование инвестиций, инвестиционная среда, инвестиционная деятельность.

STOCK MARKET AS A SOURCE OF INVESTMENT FORMATION IN MODERN CONDITIONS

Kamilova Sevara Anvarovna

Senior Lecturer, PhD

Department of Finance and Financial Technologies

Tashkent State University of Economics

Abstract: This article discusses the stock market as a source of investment formation in modern conditions. The ideas of many economists and experts in scientific research are studied. Conclusions are drawn on the composition, analysis and improvement of investment activities and sources of financing them in the current conditions.

Keywords: investment, investment policy, investment financing, investment environment, investment activity.

Bozor iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri - bu fond bozori hisoblanib, u vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga joylashtirishga va qayta taqsimlash orqali maqsadli joylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday maqsadlarga qimmatli qog'ozlar bozorining an'anaviy va noan'anaviy segmentlari hisoblangan qimmatli qog'ozlarning barcha turlari o'z samarasini bergandagina erishiladi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, ular bilan oldi-sotdi qilish kabi barcha operatsiyalarni o'z ichiga oluvchi muomalalarni asosan tijorat banklari amalga oshiradi. Bu ularning, avvalo, ustav kapitalini oshirish darajasini ta'minlasa, ikkinchidan, bozorlardagi tijorat faoliyati yordamida chet eldag'i bo'sh kapitallarni xarakatga keltiriladi. Shuning uchun, ayni paytda qimmatli qog'ozlarning barcha instrumentlari to'liq va samarali ishlashi uchun mazkur bozorlar infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlantirish davlat darajasiga ko'tarilishini talab etmoqda. Mamlakatimizda esa fond bozori infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va unda inson manfatlariga qaratilgan aniq maqsadlar belgilanganligi bu vazifaning davlat darajasiga ko'tarilganligini yanada yorqin ifodalaydi. Xususan; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "... moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak. ... Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko'lamenti yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur" [1], deb ta'kidlaganida mutaxassislar va keng jamoatchilikning e'tiborini aynan mana shu dolzarb masala - milliy fond bozorini yanada rivojlantirishga qaratdi.

Yuqoridagi holatlar, fond bozorlari infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanishi uchun avvalo shu bozorlarga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligi, bozorning kapitallashuv darjasasi, daromadliligi, kapitalni oshirish kabi xususiyatlarini ta'minlash uchun hizmat qiladi.

Fond bozorlarining yana bir xususiyatlari belgisi - bu ularning risk darajasiga tobeligi hisoblanadi. Shu sababli fond bozori infratuzilmasini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish lozim.

Ayni paytda fond bozorlari va ularning samarali faoliyati, ularning ishtirokchilari hamda muomaladagi xalqaro maqomga ega bo'lgan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar turlari muhim ahamiyatga ega. Fond bozorlarining rivojlanishi davlatning infratuzilmaviy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, avvalo milliy fond bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali yuqori sur'atda rivojlanishga olib borsa, ikkinchidan, tijorat banklarining yuqori likvidligi va moliyaviy barqarorligini xalqaro me'yorlarga tenglashuviga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini olimlar, ekspertlar tomonidan tortishuvlar, ilmiy-nazariy jihatdan qarashlar, o'sha davr g'oyalari bilan uyg'unlashgan, uni bajaradigan funksiyalari, tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari, xarakterli tomonlari, bozor segmentlari orqali hamda ularning ishtirokchilari o'rtasidagi

iqtisodiy munosabatlар nuqtai nazaridan yanada chuqurroq ilmiy asoslab berish takomillashib bir tizimga keltirilmoqda, zamon talablari va fundamental omillarga mos holda u ilmiy jihatdan asoslangan holda rivojlantirib borilmoqda. Xususan, fond bozorlarining iqtisodiy mohiyatini turli davrlarda yashab o'tgan iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil g'oyalari orqali nazariyalar yaratilgan. Lekin, har bir iqtisodiy kategoriya doimiy ravishda zamonaviy omillar asosida takomillashib boradi. Jahon fond bozori ham hozirgi kunda qo'shimcha tarzda noan'anaviy, zamonaviy, yangi va xilma-xil funksiyalarni bajarmoqda. Shu nuqtai nazaridan uning iqtisodiy mohiyatini bir nechta iqtisodchi oimlarning nazariy ilmiy qarashlarini, hozirgi zamonaviy omillarni va boshqa o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda chuqurroq o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

Mamlakat iqtisodiyotida investisiya faoliyatini moliyalashtirish, uning manbalarini shakllantirish, qulay investisiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish singari qator masalalar ko'plab iqtisodchi olim va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida atroficha yoritilgan. Jumladan, klassik iqtisodiyot namoyondalari A.Smit, D.Rikardo va U.Petti, shuningdek P.Samuelson, Yu.Fisher va boshqalarning asarlarida moliyaviy resurslar va moliyalashtirish mexanizmlari, jumladan investisiyalarning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari keng tadqiq etilgan va ishlab chiqilgan.

Xorijlik iqtisodchi oimlardan F.Modilyani, M.Miller, V. Aladin, Dj. Aleksandr, V. Beyli, I. Vaxrin, S.Valdaysev, P. Vorobyev, V. Jdanov, V.Igoshin, V. Kiseleva, Ya.S. Melkumov, Ya.M.Mirkin, G.I. Ivanov, S. Neshitoy, G. Nikolskaya, D.Tobin, U. Sharp investisiya faoliyati turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, investisiyalarning tasnifi va rivojlanishing ilmiy-amaliy asoslari, investisiya faoliyati va investisiya muhitini moliyaviy-iqtisodiy baholash uslubiyoti va usullarini baholash bilan bog'liq yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borganlar [5].

Jumladan, Ya.S.Melkumov ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda foyda olish maqsadida investisiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy, mulkiy va intellektual qo'yilmalardan samarli foydalanishni tahlil qilgan [2]. Muallif bu yerda investisiyalarni daromad manbai sifatida o'rganib, investisiya faoliyatining turlarini ko'rsatib bergen. Bu yerda bahsga sabab bo'layotgan holat investisiya ob'yektlarining turlari. Bu haqda boshqa ilmiy ishlarimizda fikr yuritilgan.

Taniqli iqtisodchi olim U. Sharp ham investisiya faoliyatni fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, qimmatli qog'ozlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega oqilona investisiya strategiyasi investisiya faoliyatini moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozoridan qo'shimcha mablag'lar jalb etish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi[3]. U.Sharpning investisiya faoliyatini moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikriga muvofik, ular investisiya faoliyatini moliyalashtirishning faol sub'yektlaridan biri hisoblanadi.

Investisiya faoliyatining moddiy va nomoddiy turlari bo'yicha respublikamizda bir qator izlanuvchilar faoliyat olib borgan. Jumladan, professor N.G.Karimovning fikricha, "Yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyoti tahlili ko'rsatmoqdaki, investision faollik bilan iqtisodiy o'sish borasidagi aloqadorlik bir xilda emas. Bunda ular bir-birini taqozo etishi ko'zatiladi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy faollikkha bog'liq bo'lgani holda, o'z navbatida, iqtisodiyot taraqqiyotining har bir konkret bosqichida mamalakatning real imkoniyatlarini belgilab beradi [4].

Investisiya faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda asosan moliya resurslarini davlat maqsadli dasturlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa davlat ehtiyojlariga yo'llash orqali amalga oshiriladi. Umuman, davlat investisiyalari samarasi kamroq deb hisoblanadi, chunki ular aksariyat hollarda noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga yo'llanadi. Bundan tashqari, hozirgi sharoitda byudjet mablag'lari cheklanganligi sababli ularni katta miqdorda amalga oshirishning imkonи yo'q. Davlatning byudjet resurslari birinchi navbatda mamlakat va hududlarni rivojlantirishning maqsadli investisiya dasturlarini bajarishga yo'naltiriladi.

Markazlashtirilgan investisiyalar faqat respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlari va davlatlararo bitimlarni amalga oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga, suv xo'jaligi qurilishiga, aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga, davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'yektlari qurilishiga, umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va ta'biiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

O'zbekiston fond bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning tuzilmasi rivojlangan mamlakatlar fond bozorlari tuzilmasidan keskin farq qiladi, chunki u mamlakat iqtisodiy salohiyatining allaqachon shakllangan tuzilmasini aks ettiradi. Bu kapitalning asosiy qismi xomashyo sohasida, aniqrog'i, energetika sohasida aylanishini tushuntiradi. Byudjetga nimadan tushayotgani va jahon bozorida nima talab borligi ichki fond bozorini ham shakllantiradi. Hozirgi bosqichda O'zbekiston fond bozorida investitsiya manfaatlarining yuqori texnologiyali noresurs tarmoqlariga o'tish tendentsiyasi kuzatilmaydi. Istisno - O'zbekiston investorlarining mamlakatimizdan tashqaridagi o'xshash aktivlarga investisiyalarini.

Fond bozorida investitsiya jarayonini yanada rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur:

- 1) mintaqaviy fond bozorlarini jadal rivojlantirish uchun O'zbekiston fond bozorining xalqaro investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etishi.
- 2) global investitsiya makonini yaratish uchun tarkibiy, huquqiy va operatsion jihatlarga o'zgartirishlar kiritish.
- 3) kapital harakati tezligini oshirishga yordam beruvchi yangi investitsiya vositalarini joriy etish.

4) bozor ishonchlilagini oshirish uchun ma'muriy bo'limgan usullarni ishlab chiqish zarur. Xalqaro standartlarga mos kelishi uchun O'zbekistonda bozor ishtirokchilarining kasbiy javobgarligi to'liq faoliyat ko'rsatuvchi tizim, rivojlangan mustaqil reyting agentliklari va professional hakamlik sudsari tizimi bo'lishi kerak.

5) O'zbekiston fond bozorini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ajratib ko'rsatish.

Jahon iqtisodiyotining turg'unligi va yevrohudud muammolari resurslarga talabning pasayishi hatto O'zbekiston fond bozorining eng dinamik o'sib borayotgan qismida ham aylanmaning yanada pasayishiga olib kelmasligiga ishonch bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2018/12/28/prezident-murojaatnomasi//O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shakat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi . 2018-yil 28-dekabr.>
2. Мелкумов Я.С. Инвестиций. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2003.
3. Nurmuxamedov A. A., & Nurmuxamedova B.N. (2023). Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. Science and Education, 4 (3), 836-847.
4. Шарп У. идр. Инвестиции. Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2001.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/economy>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

